

## TURKISTON O'LKASIDA USULI JADID MAKTABLARNING TASHKIL ETILISHI VA ULARNING FAOLIYATI

**Mo'ydinova Irodaxon Abdumannob qizi**

Qo'qon universiteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ma'rifatparvar jadidlarning Turkiston o'lkasida usuli jadid maktablarini tashkil etishi va maktablarning faoliyati hamda jadidlarning maktablari uchun yozgan kitob, asar va darsliklari haqida so'z boradi. Shu bilan bir qatorda Ismoil Gaspirali, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Isxoqxon Ibrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Hamza Hakimzoda Niyoziyarning ilm-ma'rifat uchun ko'rsatgan jasoratlari, xizmatlari millatni uyg'otmoq uchun bosib o'tgan yo'llari haqida ma'lumotlar beriladi.

**Kalit so'zlar:** Turkiston, jadid, yangi usul, demoktarik harakat, usuli savtiya, Ismoil Gaspirali, Abdurauf Fitrat, Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulhamid Cho'lpon, ma'rifatparvar, milliy taraqqiyot usullari, asar, darsliklar, maktab, taraqqiyot, muallim, kitob, qishloq, jamiyat, millat, xalq, avlod, ilm, ma'rifat, ma'naviyat.

**Аннотация.** В этой статье рассказывается об организации и деятельности школ методистских джадидов в Туркестанском крае просветленными джадидами в конце девятнадцатого и начале двадцатого веков, а также о книгах, работах и учебниках, которые джадида писали для своих школ. В качестве альтернативы будет представлена информация о подвигах Исмаила Гаспирали, Абдуллы Авлони, Махмудходжи Бехбуди, Исхак-Хана Ибрата, Мунавваркари Абдурашидханова, Хамзы Хакимзаде Ниязи для просвещения, пути, по которому они прошли, чтобы пробудить нацию.

**Ключевые слова:** Туркестан, Джадид, новый метод, Демократическое движение, метод савтия, Исмаил гаспирали, Абдурауф Фитрат, бехбуди, мунавваркари абдурашидханов, Абдулхамид Чулпан, просветитель, методы национального развития, работа, учебники, школа, Прогресс, учитель, книга, деревня, общество, нация, народ, поколение, наука, просвещение, духовность.

**Abstract.** In this article, the method of the enlightened jadids in the Turkestan region of the late 19th and early 20th centuries will talk about the establishment of jadid schools and the activities of schools and the books, works and textbooks he wrote for the schools of the jadids. In parallel, information is given about the courage shown by Ismail Gaspirali, Abdullah Avlani, Mahmudhoja Behbudiy, Iskhakhan Ibrat, Munavvarqori Abdurashidkhanov, Hamza Hakimzadeh Niyazi for the Enlightenment, the ways in which his services went to awaken the nation.

**Key words:** Turkestan, jadid, new method, democtarian movement, usuli savtia, Ismail Gaspirali, Abdurauf Fitrat, Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidkhanov, Abdulhamid Chulpan, enlightener, methods of national development, works, textbooks, school, progress, teacher, book, Village, Society, nation, people, Generation, Science, enlightenment, spirituality.

Jadidlar o'z faoliyatlari davomida maorif, maktab, madrasalar va ulardagi o'qitish usullarini tubdan isloh qilish, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirish, millatni ma'nan uyg'otish uchun kurash olib

bordilar. Jadidlar xalqning fikrlash darajasini oshirish ularni mustaqillikka yetaklaydi deb o'ylashardi. Bu esa albatta yangi usuldagi maktablarni ochish orqali amalga oshirilardi.

“Usuli jadid” maktablarining asosiy maqsadi milliy ma'naviyati yuksak, vatan va millat istiqboli uchun jon kuydiruvchi yoshlarni tarbiyalab yetishtirish edi. Jadid pedagoglarining buyuk xizmatlari shundaki, ular maktablarda ona tilida ta'lim-tarbiya berishga, milliy adabiyot, musulmon dini va ma'naviyati asoslarini o'qitishga hal qiluvchi masala sifatida qaradilar. Chunki ular millatning o'zligini saqlovchi asosiy vosita o'z ona tili va milliy adabiyot deb bildilar[3].

Aslini olib qaraganda Turkiston o'lkasidagi birinchi usuli jadid maktablarining faoliyati bevosita Ismoil Gaspirali shaxsi bilan bog'liq. Ismoilbek Gaspirali 1884-yilda jadid maktabi tashkil etib, 40 kunda 12 bolaning savodini chiqaradi. Uning o'qitish usuli “Usuli savtiya”, ya'ni “Yangi usul” nomi bilan shuhrat qozondi. Ismoilbek Gasprali usuli jadid maktablari uchun darslik yaratadi, o'zining “Tarjimon” (1883-1914) gazetasini tashkil etib, jadidchilikni turkiy xalqlar orasida keng targ'ib qiladi. Bu gazeta Toshkent va boshqa shaharlarga ham tez yoyiladi[4]. Gasprali 1893-yilda Toshkent, Samarqand va Buxoroda bo'ldi. Buxoroda amir Abdulahadni jadid maktabi ochishga ko'ndirdi. Bu maktabga “Muzaffariya” nomi berildi. 1898-yilda To'qmoqda (Qirg'iziston) ham shunday maktab ochildi. 1899-yilda Andijonda Shamsuddin domla, 1901-yilda Qo'qonda Saloxiddin domla, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov va Samarqandda Abduqodir Shakuriylar birinchi bo'lib jadid maktablarini ochadilar. Jadidchilik harakatining yirik namoyandalari jadid maktablari uchun darsliklar ham yaratdilar. Shu jumladan, Saidrasul Aziziyning “Ustozi avval” (1903), Munavvarqorining “Adibi avval” (1907), Abdulla Avloniyning “Birinchi Muallim”, “Ikkinchi Muallim” (1912) darsliklari alohida e'tiborga molikdir[8].

Maktab faoliyatida Maxmudxo'ja Bexbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Abdulla Avloniy, Abdulxamid Cho'lpon va boshqa ziyolilar jonbozlik ko'rsatganligini alohida ta'kidlab o'tish joizdir.

Mahmudxo'ja Behbudiy Turkistonda “Usuli jadid” maktablarini tashkil etish uchun bor kuchini sarfladi. U shu maktablarni kitoblar bilan ta'minlashda ham jonbozlik ko'rsatdi. Behbudiy Samarqandning eski shahar qismida bepul kutubxona, qiroatxona, o'z hovlisida maktab ochdi. Mashhur pedagog Abduqodir Shakuriyning yangi usuldagi maktabini o'z hovlisiga ko'chirib keldi. O'quv rejaları tuzish, yangi darsliklar yaratish, o'qituvchilar tayyorlaydigan kurslar ochish kabi ishlarni rivojlantiradi. “Usuli jadid” maktabini yo'lga qo'yish oson kechmadi. Mahmudxo'ja Behbudiyning yangi maktablar uchun yozgan asarlari katta hodisa bo'ldi. Ayni davrda bu darsliklar nazariy, ilmiy va amaliy jihatdan keng qo'llanildi. Bu kitoblarning bugungi kunda ham qadri yo'qolganicha yo'q. “Kitobat ul-atfol” (“Bolalar maktubi”) asari o'z davrida bir necha marta nashr etilgandi. Bu kitobga qirqtaga yaqin forsiy va turkiy insholardan namunalar kiritilgan.

Munavvar Qori Abdurashidxon o'g'li. U o'z millati fidoyisi sifatida Turkiston musulmon xalqlari milliy-ozodlik harakati rivojiga katta hissa qo'shdi. Munavvarqori 1901-1904-yillari Toshkentda “Usuli savtiya” maktabini ochadi, ayni vaqtda maktabda imomlik ham qiladi. 1906-yili esa, yangi usul maktabi sohasidagi faoliyatini o'z uyining tashqari hovlisida davom ettiradi, oradan ko'p vaqt o'tmay maktab uchun ikki xonali qo'shimcha bino qurdiradi. Qisqa muddat ichida bu maktab dovrug'i ortadi, bolalar soni ko'payib ketadi. Natijada Munavvarqoriga hammahalla bo'lgan Buvaxonto'ra Poshshaxon o'g'lining tashqi hovlisida ham maktabning ikki sinfli maktab

ochiladi. Bu yerda 1-2-sinflarni bitirgan bolalar o'qishni Munavarqori hovlisida davom ettirganlar. 1913-1914 o'quv yilida maktabda yuqori sinflar (5-va 6-sinflar) ochiladi. To'rtinchi sinfdan rus tili ham o'quv fani sifatida o'rgatiladi.

Is'hoqxon Ibrat 1886-yili eski maktablarga nisbatan birmuncha ilg'or bo'lgan maktabni ochdi. 1907-yili esa ikkinchi marta qishloq bolalari uchun eski maktablardan butunlay farq qiluvchi bepul yangiusuli savtiya maktabi ochdi. Bu maktabda o'z farzandlari Abbosxon, Vaqqosxon, Fayozxonni ham 25 nafar qishloq bolalarini o'qitdi. Maktab o'z uyida, yorug' derazali xonaga joylashgan bo'lib, u yangicha o'quv qurollari - parta, stol, stul, yangi kitoblar, darsliklar, daftar, doska kabilar bilan jihozlangandi. Ibrat ilg'or pedagoglar orasida birinchi bo'lib 1914-yili To'raqo'rg'onda rus maktabi ochdi va uni "Uchitel" nomi bilan atadi. Bu maktabda 1916-yilgacha To'raqo'rg'on va qo'shni qishloqlardan 30 nafar o'quvchi tahsil ko'rdi. U bu yerda birinchi marta 1908-yili savod chiqarishga bag'ishlangan "San'ati Ibrat qalami Mirrajab Bandiy" asarini nashr qildi.

Abdulla Avloniy 1907-yili Toshkentning Mirobod mahallasida, keyinchalik Degrez mahallasida yangi usuldagi maktablar ochdi. Maktablardagi o'quv jihozlari oz'gartirdi, o'z qo'li bilan parta va doskalar yasadi. Maktabga qabul qilingan bolalarning asosiy qismi kambag'a lkishilarning bolalari bo'lganligi uchun ularni kiyim-kechak, oziq-ovqat, daftar-qalam bilan ta'minlash maqsadida, do'stlarining ko'magida "Jamiyati xayriya" tashkil etadi va bu jamiyatga o'zi raislik qiladi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy 1911-yili Qo'qonning Hojibek guzarida maktab ochib, yetim va kambag'al bolalarni o'qitadi, o'quvchilar uchun "Yengil adabiyot", "O'qish kitobi" o'quv qo'llanmasida amaliy va nazariy jihatdan muhim g'oyalarni olg'a surdi Niyoziy 20 yillik o'qituvchi faoliyati davomida yoshlar tarbiyasi (Suriya), Bayrut, Istanbul, Odessa shaharlariga borib, 1914-yil boshlarida Qo'qonga qaytadi. 1915-yili Marg'ilonda maktab ochadi, muallimlar tayyorlaydigan kurs tashkil etadi. Hamza ma'rifatnikeng xalq ommasiga tarqatish tarafdori edi. Kambag'al bolalarining o'qishini doimiy ta'minlash niyatida ularga moddiy yordam berishni maqsad qilib "Yordam jamiyati" tuzdi.

Yangi usul maktablarda quyidagilarga e'tibor qaratilgan edi:

1. Sinfdan bolalar 30 dan oshmasligi;
2. 2 marta yoz va qishda bolalarni maktabga qabul qilish;
3. 1 muallimda 3-4 sinf bulishi;
4. Dars 5 soatdan oshmasligi, har darsdan so'ng 10 daqiqa tanaffus;
5. Juma va bayram kunlari dam olinishi, yozda ta'til bo'lishi;
6. Dars zerikarli bo'lmasligi, bolalarni urish, so'kish mumkin emas.[16]

Umuman olganda yangicha o'qitish tizimi musulmon bolalariga qisqa vaqt ichida dunyoviy, diniy ta'lim berish dasturi asosida olib borildi. Bu dasturga ko'ra maktablarda o'qitish tizimi ikki bosqichda amalga oshirilgan. Birinchi bosqich ibtidoiy qism deb atalib, uning taxsil muddati 4 yil bo'lgan. Birinchi bosqichni tugatgan shogird eski maktabda 10 yil o'qigandan ko'ra yaxshiroq savod chiqargan. Ikkinchi bosqichni muvaffaqiyatli tugatgan shogird arabcha, forscha, turkiy tilda bemalol so'zlashib, ruschada erkin gaplasha olar edilar.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, Turkistonda usuli jadid maktablarining shakllarishi va taraqqiy topishi juda ko'plab muammolarning barham topishiga zamin yaratishi yaratdi. Jadidlar uchun ilm va ma'rifat yagona qurol bo'lib, ular shu qurol yordamida o'lkada ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot uchun kurashdilar. Marifatparvarlar o'z millatlaridan yetuk olimlar, bilimdon mutaxassislar, madaniyat arboblari etishib chiqib, yurtni obod, Vatanni ozod, farovon etishlarini orzuqildilarvabu yo'ldafidoyilik ko'rsatdilar.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurasulov.M O'zbek ma'rifatparvar shoirlari ilm-ma'rifat haqida,—T.:O'qituvchi, 1972-yil
2. Boboxonov.A, M.Maxsumov. Abdulla Avloniy pedagogic faoliyati.—T.:O'qituvchi ,1966-yil
3. Dolimov U "Jadidchilikning tamal toshi" Jahon adabiyoti, 2010 yil, 1-son.
4. Dolimov U. "Jahon adabiyoti" jurnali, 2010 yil, 1-son.
5. Hashimov.K, Nishonova.S Pedagogika tarixi: Darslik.—T.:2005-yil.
6. Konstantinov,A Medinskiy.E, Shabayeva.M "Pedagogikatarixi"— O'qituvchi, 1976-yil
7. Is'hoqxon Ibrat. Ilmi ibrat. "Matbaai Is'hoqiya", To'raqo'rg'on, 1909-yil.
8. Qosimov.B Abdulla Avloniy. —T.:O'qituvchi, 1979-yil.
9. Qosimov.B Ismoilbek Gaspirali. —T.:1992-yil.
10. Ro'ziboyeva. E Turkistonda ilk jadid maktablar shakllanishi va faoliyati.2023.B.5.6.7.
11. Turdiev Sh. Ular Germaniyada o'qigan edilar. T.: 2006, B.225
12. Tursunov.I Istiqlolga intilgan qalblar nidosi. —T.:1993-yil.
13. U.Amonov TURKISTON O'LKASIDA USULI JADID MAKTABLARINING SHAKLLANISHJARAYONI,MUAMMOLARIVA TARAQQIYOTI. Buxoro.2022. B.412.413.
14. Z. Abdirashidov Ismoil Gaspirali va Turkistonda jadidchilik. —T.:2008.B.26.27.28.
15. O'zbekiston tarixi: Yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar. Davra suhbat materiallari. 1998 yil 9 oktabr. –T.: Eldinur nashriyot uyi, 1998.
16. G'affarov.Sh Istibdod davrida Turkistondagi ta'lim tizimi. – Samarqand.: SamDU nashr, 2000.